

## Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-fevral oyida, Namangan viloyatida jami 1546,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ni tashkil etdi.

#### Bajarilgan qurilish ishlari dinamika



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1546,4</b>	<b>108,2</b>
Mingbuloq tumani	33,0	103,5
Kosonsoy tumani	65,5	107,6
Namangan tumani	65,6	112,8
Norin tumani	38,9	110,8
Pop tumani	76,9	70,8
To'raqo'rg'on tumani	63,9	108,2
Uychi tumani	75,1	101,8
Uchqo'rg'on tumani	53,6	98,6
Chortoq tumani	88,9	113,2
Chust tumani	46,9	109,0
Yangiqo'rg'on tumani	59,1	110,6
Namangan shahar	361,6	113,6
<i>shundan</i>		
Davlatobod tumani	125,8	111,9
Yangi Namangan tumani	98,9	109,7
Taqsimlanmagan	517,4	111,5

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

**II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**


2026-yilning yanvar-fevral oyida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 79,4% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 111,7% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 6,7 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 80,6 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,9 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi**



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari**

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	45,9	35,4	0,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	163,8	52,0	0,0
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	473,2	67,7	215,9
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,3	113,2	110,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	708,3	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	110,9	-	-

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

### III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 81,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 78,4% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,0 % ga kamayib, 5,3% ni tashkil etdi.

Shuningdek kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,9% i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,9 % ga ko'payib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,1% ni tashkil etgan holda 756,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 45,8% mos davriga nisbatan 1,1% ga ko'paygan yoki 708,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,9% ni tashkil etdi.

#### Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



### Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
<b>Namangan viloyati</b>	<b>81,3</b>	<b>756,8</b>	<b>708,3</b>	<b>78,4</b>	<b>110,1</b>	<b>110,9</b>
Mingbuloq tumani	1,0	17,5	14,5	119,8	102,0	104,4
Kosonsoy tumani	0,0	35,5	30,0	-	106,3	109,3
Namangan tumani	4,2	46,3	15,2	277,6	109,2	106,3
Norin tumani	0,0	22,3	16,6	-	111,2	110,2
Pop tumani	11,5	47,8	17,6	21,9	117,6	113,5
To'raqo'rg'on tumani	0,9	43,7	19,3	124,8	108,2	107,3
Uychi tumani	0,6	56,6	17,8	64,8	101,6	104,4
Uchqo'rg'on tumani	2,0	35,0	16,6	37,4	105,5	104,8
Chortoq tumani	5,8	61,4	21,7	4m	109,2	103,9
Chust tumani	1,2	22,5	23,3	106,9	110,4	107,9
Yangiqo'rg'on tumani	1,0	37,6	20,5	70,8	113,7	108,3
Namangan shahar <i>shundan</i>	37,1	289,7	34,8	136,9	111,9	107,4
Davlatobod tumani	26,2	92,0	7,6	131,9	107,7	106,3
Yangi Namangan tumani	9,4	80,2	9,2	152,8	106,7	105,1
Taqsimlanmagan	16,0	40,9	460,4	148,0	114,1	113,0

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Chortoq tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 4,0 m), va Namangan tumanida (2,0 m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Pop tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 117,6%) va Yangiqo'rg'on tumanida (113,7%) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kosonsoy tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 109,3%), Norin tumanida (110,2%) va Yangiqo'rg'on tumanida (108,3%) qayd etildi.



## V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.